



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLANING O'YIN FAOLIYATIGA PEDAGOGIK RAHBARLIK QILISH

Jo'rayeva N. T., Marasulova D. N
Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: o'yin, psixik taraqqiyot, jamoaviy o'yinlar, individual yondashuv.

Ключевые слова: игра, психическое развитие, командные игры, индивидуальный подход.

Key words: game, mental development, team games, individual approach.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan davlat o'quv dasturiga 2022 yil o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Davlat o'quv dasturining birinchi nashrini qayta ko'rib chiqish uchun quyidagi omillar asos bo'ldi:

- 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va unda belgilab berilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari, shuningdek, maktabgacha ta'limda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari;
- 2021-yilda Respublikamizning barcha hududlarida maktabgacha ta'lim boshqaruv organlari mutaxassislari, MTTning davlat, nodavlat va muqobil shakllari pedagoglari va metodistlari o'rtasida o'tkazilgan manzilli milliy so'rov natijasida aniqlangan fikr va takliflarining inobatga olinganligi;
- maktabgacha ta'lim dasturlarini yaratish bo'yicha o'tgan yillar davomida to'plangan xalqaro tajribalar kiritildi.

Davlat o'quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.

Mazkur hujjat maktabgacha ta'limning muqobil, parsial, moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir.



Davlat o‘quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta‘lim ehtiyojlariga qaratilganligidir.

Kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar davlat o‘quv dasturining quyidagi jihatlarda o‘z aksini topdi:

- ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari dasturning shaxsga yo‘naltirilganligi, bola shaxsini hurmat qilish va har bir bolaning farovonligini ta‘minlash zaruratini ta‘kidlash uchun batafsil ochib berildi va umumlashtirildi;
- kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini yaratish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda bolaning tayanch kompetensiyalari ochib berildi va to‘ldirildi;
- bolalar va pedagogning o‘zaro hamkorligi yangi formatda, ya‘ni «bolaning ovozi eshitish», uning fikrini hurmat qilish, shuningdek, bolalarning o‘quv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirish va ko‘paytirishga;
- loyiha faoliyati uchun mavzularni tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirishga;
- individual tarzda va kichik guruhlarda ishlash uchun rivojlanish markazini tanlashga;
- kun davomida bolalar bilan o‘quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, ta‘lim olishni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikda baholashga asoslangan holda taqdim etildi;

Odam oldida turgan masalaning qo‘yilishi va hal qilinishi tafakkurning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Kichik yoshdagi bolalar faqat tamomila konkret tarzda qo‘yilgan masalalarnigina hal qiladilar. Bunda ular o‘sha masalani ko‘pincha faqat bir usul bilan – harakat qilish usuli bilan hal qiladilar. Bunday tafakkur xarakteri kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda ancha vaqtgacha saqlanib qoladi.

Bola o‘zining «nima uchun» va «nimaga» deb to‘xtovsiz beradigan savollariorqali fikrlashni bilib olishidan ancha ilgari ongli harakat qilishga o‘rganib oladi. Masalan, bolaning o‘yoinlarida yoki uning har kungi oddiy ish-harakatlarida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Haqiqatdan ham o‘yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o‘zgarib turadi. O‘yin doimo o‘zgarib turganligi tufayli bola o‘ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof




muhitga kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi.

O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. SHuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya'ni to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida –sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulqatvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlarni shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir.




Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan tasurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini



ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashqilotchilik va ijodqorlik qobiliyatlari to'laligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'ying'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini to'zib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.



Qoidali o'yinlar MTTda talim-tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Qoidali o'yin talim bilan bevosita bogliqdir.



Ularning har biri bola shaxsiga ta'sir ko'rsatadi, biroq o'yinning u yoki bu turiga mansub deyish uning asosiy tarbiyaviy ta'siriga ko'ra aniqlanadi. Masalan: «Oq terakmi ko'k terak, bizdan sizga kim kerak» harakatli o'yinida bolalardagi chaqqonlik, zehnlilik, chidamlilik malakalari rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi.

O'yin bolalarning xayolparastligi tufaydi narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki



narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash xolatidan kelib chiqib, sub'ekt yin paytida faol qapakat kilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan xarakat rejasidan tasavvur qilinayotgan. fikr yuritilayotgan jismlar moxiyatini aks ettiruvchi xarakat rejasiga utadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy kyrinishga utishida unga tayanch nuqtasi bulishi kerak, voxolanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini utovchi narsalarning aksariyatidan yyinda bevosita, ob'ekt sifatida foydalaniladi.

O'yin faoliyatida mazkur jismlar kandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar tugrisida fikrlash uchun xizmat kiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi xarakatning yakkol narsa bilan boglik jixatini aks ettiradi. YUkorida aytilganidek, narsa bilan yyin xarakatlarining takomillashuvi xarakat shakli xususiyati, boskichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish xisobida amalra oshiriladi. O'yin xarakatlarining kisqarishi va umumlashuvi ularning akliy kurinishidagi mantikan izchil yigiq shaklga utishning asosini tashkil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va 33 hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilishi materiallar bilan ishlash, muzika va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi. Keyinchalik bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatni shunday turiki uning bevosita maqsadi yangi-yangi informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlari shakllarini o'zgartirishdan iboratdir. Sub'ektning o'z maqsadi o'rganishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyat ta'lim jarayonidir.

«Nimadan nima bo'ladi?»

Bolalar davra qurib o'tiradilar. Olib boruvchi navbat bilan bolalarga murojaat etib savol beradi: «Nimadan nima bo'ladi?» Tuxum, jo'ja boshqalar. Agar bolalardan javob chiqmasa, olib boruvchi har bir so'zga bir necha variantlarni aytib berishi mumkin. Masalan tuxumdan jo'ja... Qaysi bola eng ko'p variantlarni aytsa, uni g'olib deb topiladi. Mashq diqqat, tasavvur, fikrlash, nutqni rivojlantiradi. «Nima bo'ladi, agar ...» Har bir bolaga biron tirik jonzot to'g'risida (odam, xayvon) ertak, hikoya o'ylab topish taklif etiladi. Har bir bola o'ylab topgan hikoyasini qolganlarga aytib beradi. O'ylab topish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Mashq tasavvur va nutqning rivojlanishiga yordam beradi.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 martdagi "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli qarori
2. "Ilk qadam" takomillashtirilgan davlat o'quv dasturi 2022 y
3. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" 2018 y
4. N.T.Jo'rayeva Ijtimoiy va pedagogic psixologiya 2022 y
5. G'oziev. Tafakkur psixologiyasi. T. O'qituvchi, 1990
6. Qodirova F.R. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi fanidan. T.: 2001
7. G.Q.Jalolova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash. metodik tavsiyanoma. T.: 2004.
8. L.Mirjalolova. Bolalarni gapirtirib o'ynaladigan o'yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. T.: 2005

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyatining psixologik xususiyatlari va o'yinlarning bolalar psixik taraqqiyotidagi o'rni hususida mulohazalar yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются психологические особенности игровой деятельности детей дошкольного возраста и роль игр в психическом развитии детей.

SUMMARY

The article examines the psychological characteristics of play activity in preschool children and the role of games in the mental development of children.